



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 90 sahifa,
22-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Matematika fanini o'qitishda kommunikativ va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar	10
<i>Esonturdiyev Mamatqobil Nurmamatovich</i>	
Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi	13
<i>Bahromova Muhayyo Imomqul qizi</i>	
Geografiya ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari	18
<i>Tuyg'unov Murodjon Salimqul o'g'li</i>	
Biologiyani o'qitishda belgili-ramziy ko'rgazmalilik vositalaridan foydalanishning o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi roli	22
<i>Azimov I. T., Daminova F. A.</i>	
PISA 2025 doirasida raqamli ta'lim kompetensiyalarini baholashning innovatsion mexanizmlari	25
<i>Doniyorov Muxiddin Normamatovich, Ishanov Almat Adilxanovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy savodxonligini oshirishda zamonaviy pedagogik vositalarni qo'llash	28
<i>Abdunazarov Bobir Normurodovich</i>	
Raqamli ta'lim resurslari asosida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish	32
<i>Jumayeva Ra'no To'ychi qizi</i>	
Oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri	36
<i>Rasulova Dildora Shuhratovna, Raxmatova Zulxumor Alimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati	40
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishda tabiiy fanning o'rni	43
<i>G'afforova Zarnigor Abdumo'min qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'limda o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligini rivojlantirish	47
<i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna, Xolbo'tayev Muzaffar Odilovich, Bozorova Xadicha Javlon qizi</i>	
Nutqida kechikish kuzatiladigan bolalarda nutqni qo'l va barmoq motorikasini rivojlantiruvchi o'yinlar orqali shakllantirish	51
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Fotima Adizovna</i>	
Taym menejment asosida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirish	55
<i>Soliyeva Ruxsora Sharobiddin qizi</i>	
Sun'iy intellekt va NLP texnologiyalari asosida elektron ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish	58
<i>Otakishiyeva Gulshano Abdulaziz qizi</i>	
Pedagogik kvalimetriya asosida bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari	61
<i>G'aniyeva Muattarxon Nodirbek qizi</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты	64
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Yosh erkin kurashchilarda chidamlilikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	69
<i>Ergashov Qaxramonjon Asqarovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish usullari	76
<i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i>	
Haykaltaroshlik fanining metodik qo'llanilishi	80
<i>Qodirov Bobirjon Botirjonovich</i>	
Ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlashning jahon tajribasi va psixologik-pedagogik asoslari	85
<i>Manzura Qosmuratova</i>	



NUTQIDA KECHIKISH KUZATILADIGAN BOLALARDA NUTQNI QO'L VA BARMOQ MOTORIKASINI RIVOJLANTIRUVCHI O'YINLAR ORQALI SHAKLLANTIRISH

Ne'matova Hilola Ikrom qizi

Navoiy davlat universiteti Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Ahmadova Fotima Adizovna

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishining kechikishi muammosi hamda uni bartaraf etishda qo'l va barmoq motorikasini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda mayda motorikaning nutq faoliyati bilan uzviy bog'liqligi ilmiy-nazariy jihatdan yoritilib, barmoq o'yinlari, sensor mashqlar, qum va suv terapiyasi elementlarining bolalar nutqini rivojlantirishdagi samaradorligi asoslab berilgan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim jarayonida motorik faoliyatni nutqiy mashqlar bilan uyg'unlashtirish orqali bolaning lug'at boyligini oshirish, talaffuz aniqligini rivojlantirish hamda muloqotga kirishish faolligini kuchaytirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: nutq rivojlanishining kechikishi, mayda motorika, barmoq o'yinlari, sensor rivojlanish, qum terapiyasi, suv terapiyasi, maktabgacha ta'lim, nutqiy faollik, kognitiv rivojlanish, korreksion pedagogika.

Abstract: The problem of speech development delay in preschool children and the pedagogical importance of developing fine motor skills of the hands and fingers in overcoming this issue are analyzed. The interrelation between fine motor skills and speech activity is scientifically and theoretically substantiated, and the effectiveness of finger games, sensory exercises, sand therapy, and water therapy elements in children's speech development is highlighted. In addition, the role of integrating motor activities with speech exercises in preschool education for improving children's vocabulary, pronunciation accuracy, and communication activity is emphasized.

Key words: speech development delay, fine motor skills, finger games, sensory development, sand therapy, water therapy, preschool education, speech activity, cognitive development, corrective pedagogy.

Аннотация: Рассматривается проблема задержки речевого развития у детей дошкольного возраста, а также педагогическое значение развития мелкой моторики рук и пальцев в процессе её коррекции. Научно и теоретически обоснована взаимосвязь мелкой моторики и речевой деятельности, раскрыта эффективность пальчиковых игр, сенсорных упражнений, элементов песочной и водной терапии в развитии речи детей. Кроме того, освещаются вопросы расширения словарного запаса ребёнка, развития чёткости произношения и активизации коммуникативной деятельности посредством интеграции моторной активности с речевыми упражнениями в системе дошкольного образования.

Ключевые слова: задержка речевого развития, мелкая моторика, пальчиковые игры, сенсорное развитие, песочная терапия, водная терапия, дошкольное образование, речевая активность, когнитивное развитие, коррекционная педагогика.

KIRISH

Hozirgi zamon pedagogikasi va bolalar psixologiyasida maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishining kechikishi (NRK) eng ko'p uchraydigan va jiddiy e'tibor talab qiladigan muammolardan biriga aylangan. Nutq nafaqat muloqot vositasi, balki bolaning intellektual salohiyati, tafakkuri hamda ijtimoiy moslashuvining asosiy ko'rsatkichidir. So'nggi yillarda olib borilgan kuzatuvlar nutqi kechikayotgan bolalar soni sezilarli darajada ortib borayotganini ko'rsatmoqda. Bunga texnologik gadgetlarga ortiqcha bog'lanib qolish, jonli muloqotning kamayishi hamda jismoniy faollikning susayishi kabi omillar sabab bo'lmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishi ko'plab psixologik va fiziologik omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ayniqsa, qo'l va barmoq motorikasining rivojlanganlik darajasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli zamonaviy pedagogik yondashuvlarda nutqni rivojlantirish jarayonida mayda motorikani shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqotning dolzarbligi ham aynan nutqida kechikish kuzatiladigan bolalarda qo'l va barmoq harakatlarini rivojlantirish orqali nutqiy faollikni oshirish imkoniyatlarini ilmiy asoslash bilan belgilanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi – nutq rivojlanishida ortda qolayotgan bolalarda mayda motorikani rivojlantiruvchi o'yinlar va mashqlarning ahamiyatini yoritish hamda samarali pedagogik metodlarni tizimlashtirishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalar shuni tasdiqlaydiki, bolaning nutq rivojlanishi uning qo'l va barmoq harakatlari, ya'ni mayda motorikasi bilan uzviy bog'liqdir. Mashhur fiziolog va pedagog olimlar V.M. Bexterev hamda M.M. Koltsova nazariyalariga ko'ra, inson bosh miya po'stlog'ida nutq markazlari bilan qo'l panjalari harakatini boshqaruvchi neyron zonalar bir-biriga juda yaqin joylashgan. Shu sababli barmoqlarning nozik harakatlari miya markazlariga impuls yuborib, nutq sohalarini faollashtiradi. Demak, barmoq motorikasini rivojlantirish nutqni shakllantirishning tabiiy va samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarida ham "Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari" hamda "Jismoniy rivojlanish" yo'nalishlari o'zaro uzviy bog'liqlikda qaraladi. Davlat talablariga ko'ra, mayda motorika ko'nikmalarini rivojlantirish bolaning nafaqat jismoniy, balki nutqiy rivojlanishining ham muhim poydevori sanaladi.

Nutqida kechikish kuzatiladigan bolalarda ko'pincha barmoqlar harakatining sustligi, qo'l mushaklarining yetarli rivojlanmaganligi va harakat koordinatsiyasining buzilishi kuzatiladi. Bunday bolalarda so'zlarni bog'lash, jumla tuzish va fikrni mantiqiy bayon etishda qiyinchiliklar uchraydi. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, barmoqlar yordamida bajariladigan nozik va aniq harakatlar miyaga kuchli impulslar yuboradi. Natijada nutqiy faollikni rag'batlantiruvchi biologik stimulyatsiya yuzaga keladi. Sensor rivojlanish tamoyillariga ko'ra, bolaning barmoqlari orqali tashqi olamni anglashi uning kognitiv imkoniyatlarini kengaytiradi.

Nutqida kechikish kuzatiladigan bolalarda qo'l motorikasini rivojlantirish artikulyatsiya apparati mushaklarining ham moslashuvchanligini oshiradi. Chunki barmoqlar harakati murakkablashib va aniqlashib borgani sari bolaning nutq tovushlarini talaffuz qilish qobiliyati ham takomillashadi. Shu bois mayda motorikaga yo'naltirilgan mashg'ulotlar lug'at boyligini oshirish, gapirishga bo'lgan ichki ehtiyojni faollashtirish hamda muloqotga tayyorgarlik darajasini yuksaltirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, mayda motorikaning rivojlanishi bolaning intellektual salohiyati, diqqat barqarorligi va mantiqiy tafakkuri bilan ham chambarchas bog'liqdir. Davlat talablarida belgilangan yosh me'yorlariga ko'ra, qo'l mushaklari yaxshi rivojlangan bola o'z fikrini aniqroq bayon etishga va atrofdagilar bilan erkin muloqot qilishga moyil bo'ladi. Nutqiy kechikishni korreksiya qilishda barmoqlar faolligini oshirish orqali nafaqat nutq markazlari, balki bolaning umumiy ruhiy rivojlanishi ham jadallashadi. Shu tariqa, qo'l va barmoq motorikasini shakllantirish nutqi kechikayotgan bolalarni jamiyatga moslashtirish hamda ularning ta'limiy muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Nutq faoliyatining kechikishi nafaqat tovushlarni talaffuz qilishda, balki bolaning umumiy psixomotor rivojlanishida ham namoyon bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanish ko'rsatkichlari orasida qo'l barmoqlarining mayda harakatlarini bajara olishi uning intellektual tayyorgarlik darajasini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Fiziologik jihatdan qo'l panjalari miya po'stlog'ining katta qismini egallaydi. Shu sababli barmoqlar "nutq organi" sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Agar bolaning barmoqlari epchil va harakatchan bo'lsa, uning nutq apparati ham rivojlanish uchun kuchli turtki oladi. Aksincha, mayda motorikasi sust rivojlangan bolalarda so'zlarni bog'lash, jumla tuzish va fikrni mantiqiy bayon etishda qiyinchiliklar kuzatiladi.

Nutqida kechikish kuzatilayotgan bolalarda barmoq motorikasini rivojlantirish faqat jismoniy mashq emas, balki kognitiv jarayonlarni rag'batlantirish vositasi hamdir. Bola predmetlarning shakli, hajmi va xususiyatlarini qo'li bilan ushlab ko'rish orqali o'rganadi. Bu jarayonda miyada yangi neyron aloqalari shakllanib, nutqning ravonligi va tushunarligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Barmoq uchlarining sezuvchanligini oshirish diqqatni jamlash va xotirani mustahkamlashga yordam beradi, bu esa lug'at boyligini tezroq o'zlashtirish imkonini yaratadi.

Pedagogik amaliyotda qo'l motorikasini shakllantirish jarayoni bosqichma-bosqich olib borilishi zarur. Dastlab oddiy kaft harakatlari va barmoqlarni bukish-yozish mashqlari bajariladi, keyinchalik esa aniqlik va murakkablik talab qiladigan faoliyatlarga o'tiladi. Bunday yondashuv bolaning nafaqat nutqini, balki fazoviy tasavvuri va mantiqiy fikrlashini ham rivojlantiradi. Natijada bola maktab ta'limiga muvaffaqiyatli tayyorlanadi, yozuv malakalarini oson egallaydi va tengdoshlari bilan erkin muloqot qila boshlaydi. Shu sababli barmoqlar motorikasini shakllantirish nutqi kechikayotgan bolalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning ajralmas qismi bo'lishi lozim.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda nutqida kechikish kuzatiladigan maktabgacha yoshdagi bolalarda mayda motorikani rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot davomida kuzatish, pedagogik tahlil, qiyosiy o'rganish hamda amaliy mashg'ulotlar metodlaridan foydalanildi.

Bolalar bilan ishlashda quyidagi metod va vositalar qo'llanildi:

- barmoq o'yinlari;
- sensor mashqlar;
- didaktik o'yinlar;
- qum terapiyasi;
- suv terapiyasi;
- tabiiy materiallar bilan ishlash.

Mashg'ulotlar bolaning yosh xususiyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich tashkil etildi. Dastlab oddiy kaft va barmoq harakatlari bajarilib, keyinchalik murakkab koordinatsion mashqlarga o'tildi. Har bir faoliyat davomida bolaning harakatlarini so'z bilan ifodalashi rag'batlantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qo'l va barmoq motorikasini rivojlantirishga qaratilgan o'yinlar nutqi kechikayotgan bolalar uchun eng samarali korreksion vositalardan biridir. O'yin faoliyati orqali rivojlantirish tamoyiliga ko'ra, bunday mashg'ulotlar bolaning qiziqishlariga mos va zeriktirmaydigan tarzda tashkil etilishi kerak. Masalan, barmoqlar yordamida turli shakllar yoki hayvonlar qiyofasini yasash o'yinlari harakat aniqligi bilan birga tasavvur va so'z boyligini ham rivojlantiradi. Bola barmoqlarini "quyoncha", "toshbaqa" yoki "uycha" shakliga keltirib, shu harakatlarga mos qisqa she'r yoki so'zlarni takrorlar ekan, uning nutqiy xotirasi va faol lug'ati boyiydi.

Tabiiy va didaktik materiallar bilan ishlash ham katta ahamiyatga ega. Masalan, mayda toshchalar, loviya, no'xat yoki rangli tugmalarni saralash va ulardan naqshlar yasash bolaning taktil sezgisini rivojlantiradi. Bola ushbu buyumlarning qattiq-yumshoqligi, shakli va hajmini his qilishi orqali "katta-kichik", "dumaloq-to'rtburchak" kabi tushunchalarni faol nutqda qo'llashni o'rganadi. Mashg'ulot davomida savol-javob usulidan foydalanish bolaning passiv lug'atini faol nutqqa aylantirishga yordam beradi.

Barmoq teatri va qo'g'irchoqlar bilan ishlash o'yinlari esa bolalardagi muloqotga kirishish qo'rquvini kamaytiradi. Bola barmoqlariga kiydirilgan personajlar orqali o'z fikrini bayon qilganida, unda o'ziga bo'lgan ishonch ortadi va nutqiy faollik tabiiy ehtiyojga aylanadi. Shuningdek, qum ustida barmoqlar bilan turli chiziqlar va shakllar chizish qo'l mushaklaridagi zo'riqishni kamaytirib, bolani erkin gapirishga undaydi. Shu tariqa, o'yinlar asosidagi motorik mashqlar bolaning har tomonlama rivojlanishida va nutqiy nuqsonlarini bartaraf etishda muhim metodik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Nutqida kechikish kuzatiladigan bolalar bilan ishlashda sensomotor faollikni oshiruvchi qum va suv terapiyasi elementlaridan foydalanish ham yuqori samaradorlikka ega. Ushbu metodikalar bolaning jismoniy va nutqiy faolligini uyg'unlashtiradi. Qum terapiyasi bolaning "qo'llari bilan so'zlashi" uchun imkoniyat yaratadi. Qum zarralari barmoq uchlaridagi sezgi retseptorlariga ta'sir qilib, nutq markazlarini rag'batlantiradi. Bola qum ustida turli shakllar chizar ekan, u harakatlarini so'z bilan ifodalashga harakat qiladi. Masalan, qumga yashirilgan buyumlarni topish jarayonida "topdim", "dumaloq", "qattiq" kabi so'zlar faol lug'at tarkibiga kiradi.

Suv terapiyasi esa bolalardagi psixologik to'siqlarni yumshatishda samarali vosita hisoblanadi. Suv bilan o'tkaziladigan o'yinlar – suvni bir idishdan boshqasiga quyish, predmetlarni suzdirish yoki "baliq ovlash" mashqlari diqqatni jamlashga yordam beradi. Suvning sezgi xususiyatlari bolada ijobiy hissiyotlarni uyg'otib, muloqotga kirishish ehtiyojini shakllantiradi. Mashg'ulot davomida "suv iliq", "baliq suzyapti", "idish to'ldi" kabi jummalarni takrorlash orqali bola so'zlarning ma'nosini amaliyotda anglaydi. Shu tariqa, qum va suv terapiyasi bolaning barmoq mushaklarini chiniqtirish bilan birga tasavvurini kengaytiradi va nutqiy rivojlanishni jadallashtiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Nutqida kechikish kuzatiladigan bolalarda qo'l va barmoq motorikasini rivojlantirish nutqiy funksiyalarni shakllantirishning samarali pedagogik va neyrofiziologik asoslaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari mayda motorikaga yo'naltirilgan tizimli mashg'ulotlar bolaning nafaqat nutqini, balki diqqat, tafakkur, xotira va muloqot ko'nikmalarini ham rivojlantirishini ko'rsatdi.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mayda motorikani rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarni tizimli ravishda tashkil etish;
2. Nutqida kechikish kuzatiladigan bolalar bilan ishlashda barmoq o'yinlari va sensor mashqlardan keng foydalanish;
3. Qum va suv terapiyasi elementlarini pedagogik amaliyotga faol joriy etish;
4. Ota-onalar uchun uy sharoitida bajariladigan motorik mashqlar bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish;
5. Nutqiy rivojlanish va mayda motorika o'rtasidagi bog'liqlikni chuqurroq o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish.

Shunday qilib, qo'l va barmoq motorikasini rivojlantirish nutqi kechikayotgan bolalarni jamiyatga moslash-tirish, ularning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish hamda maktab ta'limiga muvaffaqiyatli tayyorlashning muhim pedagogik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartlari. – Toshkent, 2020-y.
2. Mariya Montessori. Bolaning ongini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
3. Nurmuhamedova L. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
4. Xoliqov A. Bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Tafakkur, 2020.
5. Rasulova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiya asoslari. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2019.
6. Karimova V. Psixologiya. – Toshkent: Sharq, 2018.
7. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2017.
8. Shodiyev R. Nutqida nuqsongi bo'lgan bolalar bilan korreksion ishlar metodikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.